



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



“BOBURNOMA”NING ADABIY-LINGVISTIK VA TARIXIY- SOTSIOLOGIK TALQINLARI

LITERARY-LINGUISTIC AND HISTORICAL-SOCIOLOGICAL INTERPRETATIONS OF "BABURNAMA"

Xurramov Zafar Norsafar o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

E-mail: zafarjonxurramov771@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./UFUE7108](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./UFUE7108)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Boburnoma” asari adabiy-lingvistik hamda tarixiy-sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda XV–XVI asrlar tarixiy voqealari, siyosiy jarayonlar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy muhit muallifning shaxsiy kuzatuvlari asosida yoritilgani ilmiy jihatdan izohlanadi. “Boburnoma”ning badiiy xususiyatlari, til boyligi, realistik uslubi va jamiyat hayotini aks ettirishdagi imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqot davomida asarning tarixiy manba sifatidagi ishonchliliigi hamda adabiy meros sifatidagi estetik qiymati uyg‘un holda yoritiladi. Shuningdek, asarda qo‘llangan leksik birliklar, tarixiy atamalar va ijtimoiy tushunchalar tahlil qilinib, ularning davr ruhini ifodalashdagi ahamiyati asoslanadi. Muallif shaxsiy kechinmalari bilan tarixiy haqiqatning uyg‘unlashuvi adabiy-badiiy talqin nuqtayi nazaridan baholanadi. “Boburnoma” misolida memuar janrining Sharq adabiyotidagi taraqqiyoti va uning tarixiy hamda ilmiy manba sifatidagi o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Boburnoma, Zahiriddin Muhammad Bobur, memuar janri, tarixiy manba, adabiy tahlil, lingvistik xususiyat, jamiyat, madaniyat.

Annotation. This article analyzes the work “Baburnama” by Zahiriddin Muhammad Babur from a literary-linguistic and historical-sociological perspective. The fact that the work covers historical events, political processes, social relations and the cultural environment of the 15th-16th centuries based on the author's personal observations is scientifically explained. The artistic features of “Baburnama”, its linguistic richness, realistic., style and possibilities for reflecting social life are revealed. During the study, the reliability of the work as a historical source and its aesthetic value as a literary heritage are harmoniously highlighted. Also, the lexical units, historical terms and social concepts used in the work are analyzed and their significance in expressing the spirit of the era is substantiated. The combination of the author's personal experiences with historical reality is evaluated from the point of view of literary and artistic interpretation. The development of the memoir genre in Eastern literature and its role as a historical and scientific source are discussed using the example of “Baburnama”.



Keywords. *“Baburnama”, Zahiriddin Muhammad Babur, memoir genre, historical source, literary analysis, linguistic features, society, culture.*

Zahiriddin Muhammad Bobur Sharq Uyg‘onish davrining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, u davlat arbobi, sarkarda, shoir va tarixchi sifatida mashhurdir. Uning eng muhim asari hisoblangan “Boburnoma” nafaqat shaxsiy xotiralar majmuasi, balki muhim tarixiy, adabiy va madaniy manba sifatida jahon ilm-fanida yuqori baholanadi. Asarda XV–XVI asrlar oralig‘ida Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindiston hududlarida sodir bo‘lgan siyosiy voqealar, ijtimoiy jarayonlar va madaniy hayot muallif nigohi bilan yoritilgan. “Boburnoma”ning ahamiyati shundaki, u tarixiy voqealarni faqat rasmiy hujjatlar asosida emas, balki muallifning shaxsiy tajribasi, kuzatuv va kechinmalari orqali ifodalaydi. Shu jihatdan asar subyektivlik unsurlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lsa-da, realistik tasvirga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Badiiy adabiyot va tarix fanining tutash nuqtasida yaratilgan ushbu asar adabiy-lingvistik, tarixiy va sotsiologik jihatdan tahlil qilish uchun keng imkoniyat yaratadi [Bobur Z.M:2008,416].

“Boburnoma” janr jihatidan memuar asar bo‘lib, unda tarixiy voqealar muallif shaxsi bilan bevosita bog‘langan holda bayon qilinadi. Asarning adabiy qimmat, avvalo, undagi realistik tasvir bilan belgilanadi. Bobur voqealarni bezab, oshirib ko‘rsatishdan ko‘ra, ularni haqqoniy va sodda tarzda ifodalashga intiladi. Shu sababli “Boburnoma” Sharq adabiyotida realistik yo‘nalishning dastlabki namunalardan biri sifatida baholanadi. Asarda shaxslar tasviri alohida o‘rin egallaydi. Bobur tarixiy shaxslarni ularning tashqi qiyofasi, xulq-atvori, siyosiy faoliyati bilan birgalikda tasvirlaydi. Bu esa obrazlarning tirik va ishonarli chiqishiga xizmat qiladi [Ahmedov B.A:2005,352]. Muallif tabiat manzaralarini tasvirlashda ham badiiylikka alohida e‘tibor qaratadi. Tog‘lar, daryolar, bog‘lar, shaharlar haqida berilgan tavsiflar estetik did bilan yozilgan bo‘lib, o‘quvchida badiiy zavq uyg‘otadi. Shuningdek, “Boburnoma”da muallif obrazining ochilishi muhim ahamiyatga ega. Bobur o‘zini ideal qahramon sifatida emas, balki kamchiliklari va iztiroblari bilan birga ko‘rsatadi. Bu holat asarning psixologik chuqurligini oshirib, uni badiiy jihatdan mukammal asarga aylantiradi. Bobur ushbu asarida davlat arbobi va tarixchi, ajoyib shoir va harbiy sarkarda, geografik olim va ovchi sifatida gavdalanadi. Eski o‘zbek tilida yozilgan ushbu asar mohiyati va mundariyasi jihatidan Gerodot asari kabi o‘ziga xos bir insoniy hujjatdir. Bundan tashqari, “Boburnoma” muallifining o‘zi ishtirok qilgan yoki eshitgan tarixiy voqealarni o‘ta halollik bilan aks ettiruvchi bebaho yilnoma hamdir. Boburni esa huddi mana shu sifati jihatidan jahonda “tarix otasi” hisoblanmish Gerodotga qiyoslanadi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” voqeyi-ilmiy-sarguzasht asari mumtoz adabiyotimizning eng nodir nasriy namunasi sifatida hayotni haqqoniy aks ettirgani, o‘ziga xos uslubi bilan alohida qadrlil [Azamat Ziyov:2019,352]. Navoiy nasriy asarlaridan so‘ng



“Boburnoma” turkiy tilda yaratilgan badiiy, ilmiy nasr javohiri sifatida bugungi kunda dunyodagi yuzlab yirik fan tadqiqotchilari diqqatini o'ziga tortib kelmoqda. “Boburnoma”ning XVI asrdayoq adabiyotchilar, tarixchilar, umuman, ilm ahli e'tiboriga sazovor bo'lgani ma'lum. Asarning tili soddaligi, ravonligi va xalqchilligi bilan ajralib turadi. Bobur Chig'atoy turkiysining boy imkoniyatlaridan mohirona foydalangan holda o'z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda bayon etadi. Asarda leksik qatlamlar rang-barang bo'lib, harbiy, siyosiy, ijtimoiy va tabiatga oid so'zlar keng qo'llaniladi. “Boburnoma” tilining muhim xususiyatlaridan biri – undagi jonli xalq nutqiga yaqinlikdir. Muallif murakkab jumlar o'rniga qisqa va mazmunli gaplardan foydalanadi. Bu esa asarning o'qilishi va tushunilishini yengillashtiradi. Lingvistik jihatdan asar turkiy til tarixini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi, chunki unda o'sha davrga xos leksik birliklar, fonetik va grammatik shakllar saqlanib qolgan. Shuningdek, asarda arabcha va forscha so'zlar bilan bir qatorda sof turkiy so'zlarning faol ishlatilgani Boburning tilga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi. Bu holat uning Navoiy an'analari davom ettirganini ham tasdiqlaydi [Ergashev T:2012,310]. Tarixiy nuqtayi nazardan “Boburnoma” XV–XVI asr voqealarini yorituvchi eng muhim manbalardan biridir. Unda Movarounnahrda kechgan siyosiy kurashlar, temuriylar o'rtasidagi nizolar, Hindistonga yurishlar va Boburiylar sulolasining shakllanishi haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. Asarning tarixiy ahamiyati shundaki, muallif voqealarning bevosita ishtirokchisi bo'lgan. Shu sababli bayon qilingan ma'lumotlar ichki siyosiy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Bobur janglar, ittifoqlar va siyosiy qarorlarni shaxsiy kuzatuvlari asosida izohlaydi. Bu esa tarixiy jarayonlarga insoniy omilning ta'sirini ko'rsatadi. Bundan tashqari, asarda geografik tasvirlar ham tarixiy ahamiyatga ega. Shaharlar, yo'llar, iqlim sharoiti haqida berilgan ma'lumotlar tarixiy-geografik tadqiqotlar uchun muhim manba vazifasini o'taydi. Sotsiologik jihatdan “Boburnoma” jamiyat tuzilishi, ijtimoiy tabaqalar va ularning o'zaro munosabatlarini o'rganishda muhim manbadir. Asarda amirlar, askarlar, dehqonlar, hunarmandlar va oddiy xalq hayoti haqida muhim ma'lumotlar uchraydi. Bobur xalq turmushi, urf-odatlarini, bayramlari va kundalik mashg'ulotlarini tasvirlash orqali o'sha davr ijtimoiy muhitini jonlantiradi. Ayniqsa, u ayrim hududlardagi odatlarni solishtirib, ularning o'xshash va farqli jihatlarni ko'rsatadi. Bu esa asarning etnografik qiymatini oshiradi. Shuningdek, jamiyatdagi adolat, tartib-intizom, davlat boshqaruvi masalalari Bobur qarashlari orqali yoritiladi. Muallif o'z asarida hukmdor mas'uliyati, xalq bilan munosabat, adolatli boshqaruv g'oyalarini ilgari suradi. “Boburnoma” o'zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko'ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494–1504), Afg'oniston (1504–1526) va Hindiston (1526–1529)dagi hukmronlik davriga bo'linadi. Birinchi qismda Boburning otasi temuriylarning Farg'ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo xususida hamda Boburning Farg'ona taxtiga o'tirishi, ammo temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o'z ulusidan mahrum



bo'lishi, Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jang-u jadallarining behuda ketishi va nihoyat, toj-u taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog'lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg'onistonga yuz tutishi haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so'ng u yerda mustaqil davlat tuzgani, Eron shohi Ismoil Safaviyning yordami bilan Samarqandni yana ishg'ol qilgani, lekin Shayboniylardan yengilib, Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko'ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan. Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyni mag'lub etib, shimoliy Hindistonni bosib olgani va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma'lumotlardan iborat [Vohidov Sh:2016,240]. Ushbu qomusiy asar hozirgacha dunyoning o'ttizga yaqin tilga tarjima bo'lgan. Yaratilgan davrida forsiyga, XVII asrda golland tiliga, keyinchalik ingliz, fransuz, nemis, ispan, xitoy, hind, yapon, turk, rus, qozoq va boshqa tillarga o'girilgan. Boburnoma – jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik, o'zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Bu asar “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” kabi nomlar bilan ham ma'lum. Boburning o'zi esa “Vaqoye” va “Tarix” degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada Osiya, Afg'oniston va Hindistonda sodir bo'lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o'ta aniqlik bilan bayon qilingan bo'lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” ko'p qirrali mazmunga ega bo'lgan noyob yodgorlikdir. U nafaqat tarixiy manba sifatida XV–XVI asr siyosiy voqealari, harbiy yurishlar, davlatlararo munosabatlar va hukmdor qarorlari haqida ishonchli ma'lumot beradi, balki adabiy asar sifatida ham o'ziga xos badiiylikni, realistik tasvirni va muallif obrazining jonli ifodasini namoyish etadi. Bobur voqealarni oddiy, tushunarli va samimiy uslubda bayon etib, o'quvchida tarixiy davrni his qilish imkonini yaratadi. Shu jihatdan “Boburnoma” nafaqat tarixchilar, balki adabiyotshunoslar uchun ham qimmatli ilmiy manbadir. Lingvistik nuqtayi nazardan, asar turkiy tilning boy imkoniyatlarini yoritib, so'z boyligi, iboralar va terminologik qatlamlari bilan tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Undagi arabcha va forsha so'zlar bilan bir qatorda sof turkiy leksik birliklar qo'llanilishi, shuningdek, muallif nutqining tabiiyligi va ravonligi til tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli “Boburnoma” turkiy til tarixida ham iz qoldirgan adabiy yodgorlik sifatida e'tirof etiladi. Sotsiologik jihatdan esa asar o'sha davr jamiyatining turli qatlamlari, xalq hayoti, urf-odatlar, bayramlar, ijtimoiy munosabatlar va mehnat faoliyatini aks ettiradi. Boburning kuzatuvlari orqali amirlar, askarlar, hunarmandlar va oddiy xalq hayotining o'zaro aloqalari, jamiyat tartibi va boshqaruv usullari ochib beriladi. Bu esa “Boburnoma”ni nafaqat tarixiy, balki etnografik va sotsiologik manba sifatida ham qimmatli qiladi [Islomov R:2015,224]. Shunday qilib, “Boburnoma” adabiyot, tilshunoslik, tarix va



sotsiologiya fanlari tutashgan nuqtada yaratilgan universal manba bo‘lib, bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun dolzarbligini yo‘qotmagan. Asar, bir tomondan, muallifning shaxsiy kechinmalari va tasavvurlarini aks ettiruvchi adabiy yodgorlik, boshqa tomondan esa tarixiy haqiqatni ishonchli tarzda saqlab qolgan manba sifatida qadrlanadi. Shu bilan birga, “Boburnoma” o‘quvchi va tadqiqotchiga o‘sha davr siyosiy, madaniy va ijtimoiy muhitini chuqurroq tushunish imkonini yaratadi, bu esa uni jahon madaniy merosi doirasida ham alohida o‘rin egallashiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Bobur Z.M. Boburnoma – Toshkent: Fan, 2008. – 416 b.
2. Ahmedov B.A. Bobur va boburiylar – Toshkent, 2005. – 352 b.
3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi – Toshkent, 2019. – 278 b.
4. Vohidov Sh. Bobur merosi – Toshkent, 2016. – 240 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch – Toshkent, 2008. – 198 b.
6. Ergashev T. Sharqiy turk adabiyoti tarixi – Toshkent, 2012. – 310 b.
7. Islomov R. Memuar janri va tarixiy asarlar – Toshkent, 2015. – 224 b.
8. Nabiev S. Tilshunoslik asoslari va tarixiy matnlar – Toshkent, 2010. – 256 b.